



O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Safarova Nodira Ashuraliyevna

Toshkent moliya instituti "Moliya" kafedrasida dotsenti v.b., PhD

ARTICLE INFORMATION

Received: xxxx

Accepted: xxxx

Issue: 1

DOI: xxxx

KEYWORDS

o'zini o'zi band qilish, frilanser, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, innovatsiya.

ABSTRACT

Maqolada o'zini o'zi band qilish va frilanserlik faoliyatiga doir ilmiy-nazariy qarashlar, ularni aholi bandligini ta'minlashda tutgan o'rni, respublikamiz hududlari, faoliyat turlari va sohalar bo'yicha o'zini o'zi band qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda o'zini o'zi band qilish tizimini rivojlantirish istiqbollari bayon qilingan.

Kirish

Jahonda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Jismoniy shaxslarning o'zini o'zi ish bilan band qilish va tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlanganligi ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni ochib berish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, "o'zini o'zi band qilish va frilanserlik odatda tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida belgilanadi, garchi bu toifalar o'rtasida aniq chegara mavjud bo'lmasada, tadbirkorlik faoliyati, o'zini o'zi band qilish va frilanserlik toifalari mohiyatan o'xshash bo'lib, bir-birini to'ldiradi" [1].

Jahon amaliyotida jismoniy shaxslarning o'zini o'zi ish bilan band qilish orqali aholining turmush farovonligini oshirish, ularni soliq mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlash borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda soliqlarni rag'batlantirish funksiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, jahonda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish borasida yagona yondashuv mavjud emasligi, soliq rejimini tanlashda kichik korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi ish bilan band qilgan shaxslar aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

Respublikamizda aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori [2] ning qabul qilinishi o'zini o'zi band qilgan shaxslarning qonuniy mehnat faoliyatini olib borishiga va undan olingan daromadlarini qonuniylashtirishga, aholi bandligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va usullari. Respublikamizda fuqarolar mehnat faoliyatini qonuniy tashkil etishda o'zini o'zi band qilish tizimining amaliyotga joriy etilishi, shu vaqtga qadar noqonuniy tadbirkorlik faoliyati deb hisoblangan ko'plab faoliyat turlarini qonuniylashtirishga, aholining rasmiy bandligini oshirishga, ularning

ijtimoiy himoyalash mexanizmini yaratilishi kabi qator ijobiy natijalarga erishishga sabab bo'ldi. Lekin hanzug qadar ayrim fuqarolar o'zlarining mehnat faoliyatlarini qonuniylashtirmasdan faoliyat ko'rsatayotganliklari o'zini o'zi band qilish tartibini nazariy, huquqiy va amaliy jihatdan tadqiq etish zaruriyatini taqazo etmoqda. Qayd qilingan masalalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritish mazkur tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Jahon amaliyotida o'zini o'zi band qilish yoki frilanserlik faoliyati ko'p yillar davomida keng rivojlanib, ular faoliyatini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyatiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Dubina I.N., Baytenizov D.T., Kempbell D., Karayanis E., Azatbek T.A. o'zlarining tadqiqotlarida frilanserlik faoliyatiga yangi iqtisodiyotda o'zini o'zi ish bilan ta'minlashning intellektual va ijodiy shakli sifatida qaraydilar. Mualliflar o'zini o'zi band qilish orqali aholi bandligini ta'minlashning dastlabki davridan hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, o'zini o'zi band qilish iqtisodiy va mehnat faoliyati sifatida rivojlanib, dunyoning ko'plab mamlakatlari milliy iqtisodiyotiga tobora muhim hissa qo'shayotganini ta'kidlaydi. Frilanserlik faoliyati – tadbirkorlik va o'zini o'zi ish bilan ta'minlashning yangi integratsiyalashgan shakli (intellektual va ijodiy innovatsion yakka tartibdagi tadbirkorlik shakli) bo'lib, u innovatsion texnologiyalar, tovarlar va xizmatlarni yaratish va rivojlantirishga yordam berishini keltirib o'tgan [1].

O'zini o'zi ish bilan ta'minlash va frilanserlik faoliyati o'rtasida aniq chegara bo'lmasada, ular tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida faoliyat olib boradi. Tadbirkorlik, o'zini o'zi ish bilan ta'minlash va mustaqil ish bilan shug'ullanish toifalari mazmunan kesishib bir birini to'ldirsa, frilanserlik esa "Yakka tartibdagi tadbirkorlik" va "tadbirkorlik" toifalarining kesishishi sifatida ta'riflanadi [3].

Frilanserlik sohalarida an'anaviy o'zini o'zi ish bilan ta'minlash sohalaridan farqli o'laroq, qoida tariqasida, asosan ma'lumot va bilimlarga asoslangan xizmatlarni ko'rsatadigan yuqori malakali mutaxassislar ishlaydi: o'qituvchilar, IT mutaxassislar, arxitektorlar,

1-jadval

Respublika bo'yicha o'zini o'zi band qilgan fuqarolar

to'g'risida ma'lumot[8]

Hududlar nomi	01.01.2021-y.		01.12.2021-y.		Farqi (+; -)	
	nafar	%	nafar	%	nafar	%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	24 829	4,4	42 137	3,6	+17 308	-0,8
Andijon viloyati	60 797	10,8	116 945	10,0	+56 148	-0,8
Buxoro viloyati	40 046	7,1	66 848	5,7	+26 802	-1,4
Jizzax viloyati	17 678	3,2	41 448	3,6	+23 770	+0,4
Qashqadaryo viloyati	37 784	6,7	78 725	6,8	+40 941	+0,1
Navoiy viloyati	16 999	3,1	43 424	3,7	+26 425	+0,6
Namangan viloyati	53 802	9,6	96 560	8,3	+42 758	-1,3
Samarqand viloyati	77 974	13,9	177 896	15,3	+99 922	+1,4
Surxondaryo viloyati	36 681	6,5	67 070	5,8	+30 389	-0,7
Sirdaryo viloyati	13 554	2,4	27 287	2,3	+13 733	-0,1
Toshkent viloyati	37 697	6,7	86 926	7,5	+49 229	+0,8
Farg'ona viloyati	63 028	11,2	128 152	11,0	+65 124	-0,2
Xorazm viloyati	26 218	4,7	71 438	6,1	+45 220	+1,4
Toshkent shahri	54 631	9,7	120 259	10,3	+65 628	+0,6
Respublika bo'yicha jami	561 718	100,0	1 165 115	100,0	+603 397	-

muhandislar, auditorlar, huquqshunoslar, rassomlar, shifokorlar, tarjimonlar, olimlar, yozuvchilar va boshqalar[4].

Ruzvelt instituti va Kauffman jamg'armasi hisobotida rivojlanayotgan "yorqin iqtisodiyot"ning kelajagiga doir fikrlar keltirilgan bo'lib, unda 2040-yilga kelib frilanserning mehnat bozoridagi hukmron roli va an'anaviy ish shakllarining o'zgarishi bashorat qilingan[5]. Mutaxassislar yangi iqtisodiyotning bir qancha asosiy tendensiyalarini keltirib o'tgan. Birinchidan, ish asosan tartibsiz ish vaqti bo'lgan bir nechta kompaniyalarda bir vaqtning o'zida ishlaydigan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan ko'plab, ammo qisqa muddatli loyihalar xarakteriga ega bo'ladi. Ikkinchidan, an'anaviy pensiya va tibbiy sug'urta o'rnini bosadigan iqtisodiy risklarni kamaytirish uchun yangi institutlar yaratiladi. Uchinchidan, frilanser portallarining faol rivojlanishi kutilmoqda, bu frilanser xizmatlariga bo'lgan talab va taklif haqida ma'lumot beruvchi va turli xil operatsiyalarni amalga oshirish, amalga oshirilayotgan frilanserlik loyihalarini rejalashtirish va hisobga olish imkonini beruvchi mustaqil tashkilotchining bir turidir[5].

Mamlakatimizda o'zini o'zi band qilish tizimining huquqiy bazasini yaratilishi, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini ham jadallashtirdi. Jumladan, G'.U. Ruziyev aholi bandligini ta'minlashda o'zini o'zi band qilishni yanada rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Muallifning fikricha: "Keyingi yillarda o'zini o'zi band qilish yoki frilanserlik ish bilan bandlikning zamonaviy va innovatsion shakliga aylanib bormoqda. Uni rivojlantirish va faoliyat turlari bilan shug'ullanayotganlarni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralarini bandlik muammosi hamda pandemiya sharoitida aholini daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish borasida eng optimal tadbirlar ekanligi o'z isbotini topmoqda"[6].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda o'zini o'zi band qilgan shaxslar tushunchasiga ta'rif keltirilgan. Unga muvofiq: "o'zini o'zi band qilgan shaxslar - mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish,

ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar[7].

Demak, respublikamizda o'zini o'zi band qilish hisobiga o'zini daromad bilan ta'minlaydigan shaxslarning mehnat faoliyatini tartibga solish, qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida ushbu shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarining belgilanishi, undan olingan daromadlari soliqqa tortilmasligi, mehnat stajini hisobga oshish va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqining berilishiga dior tartiblar joriy qilindi.

Jahon tajribasi va mamlakatimiz amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatda ishlashga layoqatli aholining bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Aholi bandligini ta'minlash ularning daromadlarini oshishi bilan birga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, bugungi kunda respublika iqtisodiyotida rasmiy ro'yxatdan o'tmagan holda turli faoliyat bilan shug'ullanib, daromad oluvchi aholi sonining rasmiy statistikasi aniq bo'lmasa-da, amalda bunday fuqarolar soni bir necha yuz mingni tashkil etadi. Ushbu fuqarolar faoliyatini qonuniy tashkil etishda o'zini o'zi band qilish tizimining amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga soliqlar bo'yicha muayyan yengilliklar berish va ularni iqtisodiyotdagi faol aholi qatlami sifatida e'tirof etish, pensiya fondiga to'lovlarini amalga oshirish hisobiga yoshga doir nafaqa bilan ta'minlash kafolatini yaratilishi mazkur munosabatlar tizimida tub burilish bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Aholi tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ish, xizmat) turlarini belgilash va ular uchun ijtimoiy soliqni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga undirish orqali yakka

2-jadval

Respublika bo'yicha sohalar kesimida o'zini o'zi band qilgan

fuqarolar to'g'risida ma'lumot[8]

Sohalar	01.01.2021-y.		01.06.2021-y.		01.12.2021-y.	
	nafar	%	nafar	%	nafar	%
Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar	105 321	18,7	152 307	17,9	195 405	16,8
Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	93 612	16,7	132 512	15,5	198 936	17,1
Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	125034	22,3	224 879	26,4	291 733	25,0
Axborot-kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	10 298	1,8	16 469	1,9	26 816	2,3
Maishiy xizmatlar	163 300	29,1	240 500	28,2	336 566	28,9
Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish	64 153	11,4	85 705	10,1	115 659	9,9
Respublika bo'yicha jami	561 718	100,0	852 372	100,0	1 165 115	100,0

Область диаграммы

tartibdagi tadbirkorlarga o'rnatilgan tartibda nafaqa hisoblash uchun daromad hajmini aniqlash mexanizmi joriy etildi. Natijada, 2021-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha jami 561718 nafar o'zini o'zi band qilganlar fuqarolar ro'yxatga olingan bo'lsa, 2021-yilning 1-dekabr holatiga 1 165 115 nafar jismoniy shaxslar o'zini o'zi band qilib, faoliyat olib bormoqda[8].

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha o'zini o'zi band qilgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilamiz (1-jadvalga qarang).

Yuqorida qayd etilganidek, 01.01.2021-yil holatiga respublika bo'yicha 561718 nafar o'zini o'zi band qilgan fuqarolar ro'yxatdan o'tib faoliyat olib borgan bo'lsa, 01.12.2021-yil holatiga ular soni 1 165 115 nafarni tashkil etgan yoki ushbu vaqt oralig'ida 603 397 nafarga ortgan.

Hozirgi vaqtda respublika bo'yicha o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning 177 896 nafari yoki 15,3 foizi Samarqand viloyati, 128 152 nafari yoki 11,0 foizi Farg'ona viloyati, 120 259 nafari yoki 10,3 foizi Toshkent shahri, 116 945 nafari yoki 10,0 foizi Andijon viloyati hissasiga to'g'ri kelib, hududlar tarkibida yuqori o'sish sur'atlariga ega. Tahlil qilinayotgan davrda respublikaning barcha hududlarida o'zini o'zi band qilganlar soni oshgan bo'lsada, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarida o'zini o'zi band qilganlar soni va ulushi boshqa hududlarga nisbatan bir oz kamni tashkil etgan. Bu holat ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi aholi sonining nisbatan kamligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori asosida o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning sohalar kesimida ham ortib borayotganligi kuzatilmoqda (2-jadvalga qarang).

Respublikada o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning sohalar kesimidagi tahlili ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-dekabr holatiga ularning 336 566 nafari yoki 28,9 foizi maishiy xizmatlar, 291 733 nafari yoki 25,0 foizi qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar, 198 936 nafari yoki 17,1 foizi sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar, 195 405 nafari yoki 16,8 foizi ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar, 115 659 nafari yoki 9,9 foizi xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, 26 816 nafari yoki 2,3 foizi axborot-kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat olib bormoqda.

IT sohasida faoliyat olib borayotgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni boshqa sohalariga qaraganda bir oz kamni tashkil

etayotgan bo'lsada, 2021-yil mobaynida qariyb 2 baravarga oshganligini alohida e'tirof etish lozim.


Respublika iqtisodiyotida rasmiy ro'yxatdan o'tmagan holda turli faoliyat bilan shug'ullanib, daromad oluvchi aholining aksariyat qismini qisqa vaqt ichida o'zini o'zi band qilish tizimi orqali faoliyatini qonuniylashtirishga erishilganligi mazkur tizimning ayni vaqtda naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda kasbiy bilimga asoslangan ilg'or innovatsion va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatadigan o'zini o'zi band qilganlar sonini ko'payishi mazkur soha samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2021-yil 1-dekabr holatiga respublika bo'yicha jami 1 165 115 nafar fuqarolar o'zini o'zi band qilgan holda, ularning 644 273 nafari yoki 55,3 foizi 2021-yil davomida hisobga olingan (1-rasm).

2021-yilda o'zini o'zi band qilganlarning 29 foizi maishiy xizmatlarga, 27 foizi qishloq xo'jaligi bo'yicha xizmatlarga, 17 foizi sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlarga, 15 foizi ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlarga, 9 foizi xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga hamda 3 foizi axborot-kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelgan.

Demak, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olgan daromadlarini soliqdan ozod qilinishi ko'plab faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolar mehnat faoliyatini qonuniylashtirish imkoniyatini yaratdi.

Qayd etilganidek, rivojlangan davlatlarda o'zini o'zi ish bilan band qilish va frilanserlik faoliyati bir biridan farq qiladi. "Frilanser sifatida "an'anaviy" o'zini o'zi ish bilan ta'minlash sohalaridan farqli o'laroq, qoida tariqasida, ma'lumot va bilimlarga asoslangan xizmatlarni ko'rsatadigan yuqori malakali mutaxassislar ishlaydi: o'qituvchilar, IT – mutaxassislar, arxitektorlar, muhandislar, auditorlar, huquqshunoslar, rassomlar, shifokorlar, tarjimonlar, olimlar, yozuvchilar va boshqalar. ...Frilanser bilimga asoslangan ilg'or innovatsion va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatadi. Frilanser sohasiga doimiy ravishda malakali xizmatlar ko'rsatadigan, ta'lim va amaliyot jarayonida to'plangan muhim "inson kapitali" (bilim va ko'nikmalar) bo'lgan, ishi bilimlarni shakllantirish, egallash va to'plash bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislar kiradi va ular ishlayotgan tashkilotdan emas, balki shaxsan o'zlari tomonidan ko'rsatilgan muayyan xizmatlar uchun haq oladilar"[1].



1-rasm. Respublika bo'yicha 2021-yilda sohalar kesimida o'zini o'zi band qilgan fuqarolar to'g'risida ma'lumot[8] (01.12.2021-yil holatiga)

Respublikamizda o'zini o'zi band qilish tizimining yo'lga qo'yilishi natijasida qisqa muddatda ko'plab aholining bandligi ta'minlangan, ular faoliyati qonuniylashtirilgan bo'lsada, kelgusida ilg'or innovatsion va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatadigan frilanserlikni keng rivojlantirish aholi farovonligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun mazkur sohada shunchaki o'zini o'zi band qilish emas, balki malakali xizmatlar ko'rsatadigan, yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni ko'paytirish bu sohada ustuvor vazifa qilib belgilanishi lozim.

Xulosa. O'zini o'zi band qilish tizimini joriy qilinishi aholi bandligini ta'minlash va ularning daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqlardan ozod etilganligi, ular tomonidan arzon narxlarda xizmatlarni taklif qilishga xizmat qilmoqda.

O'zini o'zi band qilgan fuqarolar soni muntazam ravishda o'sib borayotgan bo'lsada, hanzuga qadar ayrim fuqarolarning faoliyati

qonuniy asosda tashkil etilmagan. Masalan, 2022-yil 1-sentyabrdan 2025-yilga qadar taksi haydovchilari o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatiga kiritilishi belgilangan bo'lsada, ularning aksariyati hanzuga qadar o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatida va o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatida bir-birini takrorlaydigan faoliyat turlarining mavjudligi, ular o'rtasida aniq mezonning belgilanmaganligi bu borada muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida ular o'rtasida aniq mezon belgilanishi lozim.

Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni keng rivojlantirish jarayonida o'zini o'zi band qilishning innovatsion shakli sifatida frilanserlik faoliyatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Дубина И.Н., Байтенизов Д.Т., Кэмпбелл Д., Караянис Э., Азатбек Т.А. Фриланс как интеллектуально-креативная форма самозанятости в новой экономике: траектория новой парадигмы самозанятости // Социально-экономические явления и процессы. 2019. Т. 14. № 3(107).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori, <https://lex.uz/docs/4849607>
3. Bögenhold D., Heinonen J. and Akola E. Entrepreneurs and Independent Professionals: Social and Economic Logics // International Advances
4. Occupational Employment Statistics (2017). Dictionary of Occupations // U.S. Department of Labor, Bureau of Labor Statistics. URL: <http://www.bls.gov>.
5. Giang V. Five Major Ways Freelancers Will Change The Economy By 2040. Fast Company, August 24, 2015. <https://www.fastcompany.com/3049857/5-major-ways-freelancers-will-change-the-economy-by-2040>
6. Ruziyev G'.U. Aholi bandligini ta'minlashda o'zini o'zi band qilishni yanada rivojlantirish masalalari. /Moliya ilmiy jurnali, 5/2021- 170-182 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori 806-son qarori, <https://lex.uz/docs/5182451>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari.